



QORAQALPOQ AMALIY SAN'ATI ASOSIDA TALABALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xalmuratov I.T.

QQDU, tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: amaliy san'at, etnografik material, naqsh elementlari, milliy urf-odatlar, qo'l qunarmanchili, mahalliy rassomlar, xalq ustalari.

Ключевые слова: практическое искусство, этнографический материал, элементы узора, национальные традиции, ремесленник, местные художники, народные мастера.

Key words: practical art, ethnographic material, elements of pattern, national traditions, craftsman, local artists, folk craftsmen.

Резюме: Mazkur maqolada Qoraqalpoq amaliy san'ati namunalaridan, etnografik materiallardan yoki ko'chirma nusqalardan foydalangan holda amaliy ishlar bajarish shuningdek, hozirgi davrda xalq amaliy san'ati tamoyillarini talabalarda innovatsion fikrlash va loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Резюме: В данной статье освещены практические работы с использованием примеров каракалпакского прикладного искусства, этнографических материалов или копий, а также вопросы развития инновационного мышления и проектных компетенций обучающихся основам народно-прикладного искусства в настоящее время.

Summary: This article highlights practical work using examples of Karakalpak applied art, ethnographic materials or copies, as well as issues of developing innovative thinking and project competencies of students studying the basics of folk applied art at the present time.

Xalqning amaliy san'at namunalarini o'rganishda mahalliy xalq ustalarining ijtimoiy yo'nalishini aniqlash, yakka va jamoa bo'lib bajariladigan ishlarning o'lka tabiati bilan chambarchas bog'liqligi o'ziga xos jihatlarini belgilaydi, shuningdek, xalqning yashash tarzini va urf-odatlarini ham mo'jassamlashtiradi. Talabalar materillarni o'zlashtirish jarayonida naqsh elementlarining kelib chiqishini va qo'llanilishini aniqlab, amaliy san'at va qo'l qunarmanchiligi haqidagi bilimlarini oshirib boradi. Masalan, xalq xo'jalik buyumlarining nafis did bilan shakllarning estetik jihatdan muayyan bir shaklga kelishini har bir davrga mansub xalq xo'jalik buyumlarida ko'rishimiz mumkin. Uning tashqi ko'rinishini naqsh element kompozitsiyalari bilan to'ldirilib borishining har bir davrga mansub o'zgachaligi bor. Shuningdek, bu bezak naqshlarining

takomillashib borishi esa, xalqning estetik didining o'rganligidan dalolatdir. Bu esa o'z navbatida xalqning tarixini ham belgilab beradi. Hozirgi kunda bezak naqshlarining takomillashib borishi talabalarda innovatsion faoliyatning rivojlanishiga olib keladi.

San'atdagi yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'lkashunoslik manbasi bu bilimlarni aniq qilib ko'rsatadi, bu esa alohida nazariy va amaliy holatlarni idrok etishni osonlashtiradi, ularni ongli ravishda qabul qilishga sharoit yaratib beradi va egallangan bilimlarni amaliyotda sinab ko'rishning eng samarali va ishonchli vositasi hisoblanadi. Zero, bu boradagi ishlarning namunalari amaliy yo'nalishda bo'lganligi uchun madaniy–maishiy xarakter kasb etadi.

Naturaga qarab tasvirlash bo'yicha Qoraqalpoq amaliy san'ati namunalaridan, etnografik materiallardan (qadimiy xo'jalik buyumlari, mahalliy va x.k.) eki ko'chirma nusqalardan foydalangan holda amaliy ishlar bajariladi, janrlar bo'yicha talabalar o'zlari kompozitsiya tuzadilar. Shuningdek, yil davomida talabalar tomonidan yig'ilgan manbalar ularda innovatsion faoliyatining rivojlanishi uchun natura fondi tashkil topadi. Vaqt o'tishi (yillar) bilan yig'ilgan manbalarni bir tizimga to'shirib shaxsiy muzeyini tuzish mumkin. Bu o'z navbatida talabalarining har tomonlama ma'naviy yuksalishiga olib keladi.

Kompozitsion faoliyat turida Qoraqalpoq amaliy san'a'tida qo'llanilayotgan naqsh elementlarini o'z ishlarida qo'llash ulardagi rang uyg'unligi, ularning o'ziga xosliklarini tushintirish, ularni (o'simlik va hayvonat dunyosi, xo'jalik buyumlari, geometrik shakllar) turkumlash esa talabalarga mahalliy yo'nalishidagi amaliy san'at asarlarini yahholliroh, faolroh va samaraliroh idrok etishini ta'minlaydi.

Ayni paytda mahalliy materiallardan talabalar innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun qulay bo'lishi lozim. Bu qulayliklar quyidagi omillarga asoslanishi mumkin:

- mahalliy joyda san'at darajasidagi mahalliy ashyolari, ob'ektlari (san'at, mahalliy muzeyidagi tasviriy va amaliy san'atga oid eksponatlar, me'moriy obidalar)ning mavjudligi. Zero, tanish materialdan foydalanish yaxshi samara beradi:

- mahalliy rassomlar, xalq ustalarining ijodida mahalliy materiallarini aks ettirilishi:

- joylarda mahalliy ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi:

- mahalliy manbalari, asarlari va obyektlaridan foydalanishga oid metodik ishlanmalarning mavjudligi.

Bularning barchasi ma'lum darajada mahalliy materiallar asosida badiiy–estetik, amaliy san'at ta'limi mazmunini takomillashtirish uchun o'ziga xos

takrorlanmas namunalaridan biri bo'lgan ko'k ko'ylak boshqa biror- bir xalqta uchramaydigan tantanali libos turi sanaladi. Ko'k ko'ynak yoqasi va etadigan to ko'rak qismigacha naqsh bilan kashtalangan.

Xalq o'zining turmush tarzini ifodalovchi madaniy merosini hozirgi kunda muzeylarda saqlab kelmoqda. Nukus shahridagi I.V.Savitskiy nomidagi o'lkashunoslik muzeyi xalqimizning buyuk madaniy merosi to'plangan joyi bo'lib hisoblanadi. Bu merosimiz esa bugungi kunda yoshlarimiz uchun juda ham kerakli va qimmatli materiallar hisoblanadi. Qoraqalpoq naqshlarida beriladigan ya'ni ishlatiladigan ranglar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va har xil ma'noni anglatgan, masalan, ko'k rang –osmonni, oq rang – baxt ma'nosini, sariq rang – bilim zehn ma'nosini, qizil rang – quyosh, olov ma'nosini, yashil rang – yoshlik, qora rang – er ma'nolarini bildiradi.

Qoraqalpoq naqqoshlik san'ati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, naqqosh har bir naqshning hajmini, uning qaysi rangga to'g'ri kelishini, go'zallik tomonidan oldindan aniqlaydi. Ayrim naqshlar mayda va juda kichkina bo'lib ishlansa, ayrim naqshlar esa katta va aniq ko'rinib turishni talab etadi. Naqshning chiroyli ko'rinishi uni ishlagan odamga bog'liq, har bir naqsh qoraqalpoq xalqining turmushini, madaniyatini ifodalagan. Masalan, qadimda yoshi katta onaxonlarimiz ustilaridagi «aq jengde» (xotin-kishilar choponi) kiyimlaridagi naqshlaridan uning nechta farzandlari, nechta nevara va hattoki chevaralari bor ekanligini bilish mumkin ekan. Ishlangan naqshlar shunga ko'ra daryo kabi tarmoqlangan va ko'pincha ularga qizil rangdagi iplar ishlatilgan.

Bundan tashqari axborot texnologiyalari keng rivojlangan hozirgi davrda xalq amaliy san'ati tamoyillarini talabalarda innovatsion fikrlash va loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlariga kiritishni taqozo etadi.

Ijodiy ishning samaradorligi dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq hunarmandlarining pedagogik madaniyati bilan bog'liq tarzda amalga oshadi. Shu bilan birga hunarmandchilikning o'zi ijodiy jarayon bo'lib, talabalarda badiiy didni o'stirish, obyektlarni estetik baholash bilan bog'liq ijodiy qobiliyatlarini, innovatsion faoliyatlarini rivojlantirishda asosiy o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. Кутлымурадов К.А. Талабалардың кәсіплик сыпатларын кәлиплестириүде миллий кәдириятлардың тутқан орны // Илм ва жамият. Нукус-2019. -№3. В.35-36.
2. Савицкий И.Т. Народно-прикладное искусство каракалпаков. Резба по дереву.- Ташкент: Наука, 1965. ст 39